

O‘ZBEK MILLIY RAQS SAN’ATI TARIX VA TARAQQIYOT SAHNASIDA

Valijonova Sug‘diyona
O‘zDSMI FMF 2-bosqich talabasi

*“Ijrochilik san’atining ko‘pgina tur va janrlari kabi,
o‘zbek raqs san’ati ham ikki ming yildan
ko‘proq rivojlanish tarixiga ega”
San’atshunos-olim, professor
M.R.Rahmonov*

San’at olamining barcha turlari kabi raqs san’ati uzoq yillik rivojlanish bosqichlarini o‘zida namoyon etadi hamda insonlarning yashash tarzi, hududiy joylashuvi, urf-odatlar va dunyoqarashi natijasida shakllanib, turli mintaqalarda turlicha shakllarda namoyon bo‘lgan. Chunki, har bir xalq raqslarining tarixi mana shu xalqning tarixiy taraqqiyot davri bilan uzviy bog‘liqdir. Mamlakatimiz hududi ham insoniyat tarixi va madaniyatining eng qadimiy go‘shalaridan biridir. So‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan qator ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar buning yaqqol misoli bo‘la oladi. Masalan, Markaziy Osiyoda bronza davrining oxiri va ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy o‘zgarishlar qadimiy “Avesto” kitobida o‘z isbotini topgan. “Avesto” qismlarining diniy-marosimiy ijro shakllari va uning ijro uslublariga e’tibor berilsa, san’atning boshqa turlari bilan bir qatorda raqs san’atining ham rivojij bosqichlarini anglash mumkin. XX asrning 70-yillarida tarixchi olim A.Kabirov Navoiy shahridan 40 km uzoqlikda joylashgan Qoratog‘ etaklaridagi Sarmishsoy qoyatoshlaridan toshga ishlangan ko‘plab tasvirlarni topdi. Jami 100 dan ortiq rasmlar orasida raqs tushayotgan 2 kishining ham tasviri mavjud bo‘lib, ular milloddan avvalgi III-II-ming yilliklarga oid ekanligining aniqlanishi bunga yorqin dalil bo‘la oladi. Bundan tashqari, Baqtriya, So‘g‘diyona va qadimiy Xorazm shahridan topilgan yodgorliklar ham o‘zbek raqs san’atining uzoq yillik tarixiy davrga ega ekanligidan dalolatdir. Bu kabi yodgorliklarda asosan, yakka qo‘shiq, yakka raqs, guruh bo‘lib qo‘shiq aytish, guruh bo‘lib raqsga tushish manzaralari aks ettiradi. Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanidan topilgan ayollar haykalchalarida raqs holati tasvirlangan bo‘lsa, Qorabuloqdagi qabrdan topilgan ko‘zgu dastasiga ishlangan rasmda raqqosa tasviri gavdalantirilgan. Buxorodan topilgan “Buxoro ko‘zasi” nomini olgan idishdagi tasvirda Kushon-Baqtriya davriga oid beshta raqqosa tasvirlangan. Bunday yodgorlik namunalari Samarqand va Panjikent chegaralari hududidan ham topilgan.

Mazkur davrlarda o‘zbek san’ati namoyondalari boshqa hududlar san’ati bilan ham faol aloqada bo‘lganlar. Masalan, Baqtriya podshosi Monandr Hindistonning katta qismini bosib olganidan so‘ng, mahalliy madaniyat Hindiston madaniyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmagan. Bundan tashqari, Markaziy Osiyoda qudratli davlatlarning tashkil topishi ham uning madaniyatini yuqori cho‘qqilarga ko‘targan. Bu ipak yo‘li orqali bu hududlarning madaniyati hattoki Xitoy imperiyasining madaniyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, O‘zbekiston hududida yashagan xalqlarning san’at namoyondalari Toshkent, Samarqand, Shahrisabdan Xitoy imperatorlari saroyiga qadar borganliklari va yuksak madaniyatga ega bo‘lgan xitoyliklarda unutilmas taassurot qoldirganliklari haqida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Tarixiy manbalarda keltirilgan bu kabi ko‘plab ma’lumotlar ilk davrlardayoq yurtimiz hududida raqs san’ati rivoj topgani va ommaviy san’at turi sifatida yuksak e’tirof etilganligidan guvohlik beradi.

Mana shunday uzoq yillik tarixga ega bebaho san’atimizni yanada rivojlanishi, uning jahon san’ati durdonalari qatorida munosib e’tirof etilishi, aholini, xususan, o‘lib kelayotgan yosh avlodni madaniy saviyasini yanada yuksaltirish, ularning milliy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish va yosh iste’dod egalarining bilim va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017-yil 31-maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3022 sonli Qaror²⁰ ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi “O‘zbekkonsert” davlat muassasasida “Milliy raqs va xoreografiya san’ati faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish” bo‘limi tashkil etildi. “O‘zbekkonsert” davlat muassasasining ushbu bo‘limi o‘zbek raqs san’atini yanada rivojlantirish, sohadagi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida 2017-yilning oktabr oyida soha mutaxasislari bilan hamkorlikda “Ustoz va shogird” milliy raqs markazi tashkil etildi. Ushbu markaz tarkibida esa “Yakka raqqoslar maktabi” faoliyati ham yo‘lga qo‘yildi va uning asosiy maqsadi tajribali mutaxasislar va yosh iste’dod egalari bilan birgalikda o‘zbek milliy raqs maktablarining yo‘qolib borayotgan an’analarini tiklash etib belgilandi.

Balet san’atini yanada yuksaltirish va baletmeysterlik faoliyatini yanada keng targ‘ib etish, ularning mahorat maktabini mustahkamlash maqsadida 2017-yilning 25-oktabr kuni “O‘zbekiston Baletmeysterlar Kengashi” tashkil etildi. “O‘zbekiston” ashula va raqs

²⁰(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2017 y. PQ-3022-son “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.)

ansamblining badiiy rahbari va bosh baletmeysteri, O‘zbekiston xalq artisti Qodir Mo‘minov kengash raisi etib tayinlandi.

2018-yil yanvar oyida “Buxoro jilolari” milliy raqs ijrochilarining Respublika ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi. Ilk marotaba tashkil etilgan ushbu tanlovda mamlakatimiz bo‘ylab jami 70 dan ortiq raqs jamoalari va yakkaxon raqs ijrochilari munosib ishtirok etdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2018-yil 28-noyabr kuni “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli Qaror²¹i qabul qilindi. Mazkur Qaror yuzasidan 2019-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”, 2019-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqildi.

Mazkur Qarorda o‘zbek raqs san’atining asrlar davomida shakllanib kelgan ma’naviy qadriyatlari, xalqaro madaniy makonda tutgan o‘rni va maqomini yanada takomillashtirish va buyuk raqs namoyondalari tomonidan yaratilgan raqs asarlarini yosh avlodga munosib tarzda yetkazish, va ular to‘g‘ri ijro etilishi masalalariga e’tibor qaratilgan.

Bundan tashqari ushbu Qarorning 11-bandida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Vazirlar mahkamasi huzuridagi YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiya va Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda o‘zbek xalqining ko‘hna va betakror san’ati namunasi bo‘lgan Xorazm “Lazgi”sini “Xorazm raqsi – Lazgi” nomi ostida YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi to‘g‘risida bayon etilgan.

Mamlakatimizda muntazam ravishda o‘tkaziladigan Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, Xalqaro Maqom san’ati ilmiy-amaliy anjumani, “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro folklor san’ati festivali va “Raqs sehri” xalqaro festivali tashkil etilib, o‘zbek mumtoz va folklor san’atining bebaho namunalarini, milliy an’analarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha samarali tizim yo‘lga qo‘yildi.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 4-fevral “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4585-sonli Qaror²²i qabul qilindi. Mazkur Qaror asosida Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida davlat oliy ta’lim muassasasi shaklida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida

²¹(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi, 30.11.2018y, 07/18/4038/2243-son)

²²(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi, 05.02.2020y, 07/20/4585/0124-son)

O‘zbekiston davlat xoreografiya Akademiyasi tashkil etildi. Madaniyat vazirligi huzurida davlat muassasasi shaklida “Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Bahor” davlar raqs ansambli” faoliyatini tashkil etish va uning asosiy vazifalari ham belgilab o‘tildi.

O‘zbekistonda raqs san‘atini yanada rivojlantirish, milliy raqs san‘atimizning mumtoz va zamonaviy ijro namunalari uchun “oltin fondi”ni yaratish va uni yanada takomillashtirish davlat raqs ansambllarining asosiy vazifasi etib belgilandi.

Bir so‘z bilan aytganda, so‘ngi yillarda yurtimizda raqs san‘ati rivojida juda ko‘plab samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tomonlaridan qabul qilinayotgan bu kabi Qarorlar, samarali islohotlar yurtimizda xoreografiya san‘atining yanada rivojlanishiga hamda salohiyatli bakalavr va magistrnlarni, shuningdek, soha rivojida chuqur tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy va pedagog kadrlar yetishib chiqishida, kelgusida mamlakatimizda san‘at va madaniyat sohasi yanada gullab-yashnashi va vatanimiz taraqqiyoti uchun muhim bir hissa bo‘lishidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/docs/-4829149?otherlang=1> “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.05.2020 yildagi PF-6000-son”
2. Botirov Shanazar Xusainovich “O‘zbek raqsini o‘rganish uslubiyoti”, o‘quv qo‘llanma, (Xorazm raqs maktabi) Urganch, “Quvonchbek Mashhura” 2024. - 148 b.
3. Sh.Xudoynazarova // O‘zbek xoreografiya san‘ati namunalari, o‘quv qo‘llanma – T.: “Fan ziyosi” nashriyoti. 2023. 196 b.
4. G.N.Usmanova, “Raqs kompozitsiyasi asoslari”, o‘quv qo‘llanma – T.: “Fan ziyosi” nashriyoti. 2022. 153 b.
5. E.Y.Saitova “O‘zbek raqsini o‘rganish uslubiyoti” o‘quv qo‘llanma – T.: “Fan ziyosi” nashriyoti. 2022. 128 b.
6. “Milliy raqs va xoreografiya san‘atining rivojlanishi: an’anaviylik va innovatsiyalar” nomli talabalar an’anaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent – 2018.